

JINOYAT HUQUQIDA JAZONI YENGILLASHTIRUVCHI HOLATLARNI QO'LLASHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Hojiyev Afzalshoh Mardonovich

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi va amaliyoti” magistranti

afzalshohhojiyev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19553844>

Annotatsiya: Mazkur tezisda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jazoni yengillashtiruvchi holatlarning mazmun-mohiyati, ularning jazo tayinlash jarayonidagi ahamiyati hamda jinoyat uchun javobgarlikni individuallashtirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida xorijiy davlatlarning tajribasi o'zganilgan holda jazoni yengillashtiruvchi holatlarni qo'llash mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Mazkur takliflar jinoyat qonunchiligini takomillashtirish hamda jazo tayinlashda adolat va insonparvarlik tamoyillarini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: yengillashtiruvchi holatlar, jazoni individuallashtirish, ijtimoiy xavflilik, adolatlilik, insonparvarlik, jazo tayinlash.

Jazoni yengillashtiruvchi holatlar jinoyat-huquqiy institutlar tizimida muhim o'rin tutadi. Ular muayyan jinoyat uchun adolatli jazo tayinlashda hamda shaxsning huquqiy ahvolini yaxshilashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari davlatimiz rahbari, 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida takidlaganlaridek: “O'tgan davrda jamiyatdagi munosabatlar. odamlarning yashash tarzi, ongi, dunyoqarashi o'zgardi. Ma'lumki, qonunchilikda jazoni og'irlashtirish yoki yengillashtirishga oid moddalar bor. Lekin, ular tergovchi yoki sudyaning ixtiyoriga yani inson omiliga to'liq bog'liq bo'lib qolmasligi kerak. Aks holda, biz uchun mugqaddas bo'lgan adolat mezonini buziladi¹”.

Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, jazoni yengillashtiruvchi holatlar jinoyat-huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan omillarning bir turi hisoblanadi. Ular jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan jinoiy-huquqiy ta'sir choralarini yoki jinoyat oqibatlarini yanada adolatliroq bo'lishiga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 54-moddasiga ko'ra, sud jazo tayinlashda sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi, qilmishning motivi, yetkazilgan zarar miqdori va tavsifi, aybdorning shaxsi, shuningdek jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni inobatga oladi². Demak, jazoni

¹ [Prezident Murojaatnomasi boshlandi](#)

² [22.09.1994. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi](#)



yengillashtiruvchi holatlar qonunchilikda jazoni individuallashtirish mezonlaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

Umuman olganda, jinoyat huquqida jazoni yengillashtiruvchi holatlar jinoiy javobgarlik va jazoni differensiyatsiya qilish hamda individuallashtirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Ayrim hollarda esa ular shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish yoki shaxsni holatini boshqacha tarzda yaxshilashi uchun ham asos bo'lishi mumkin.

Jazoni yengillashtiruvchi holatlar haqida fikr yuritadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida yengillashtiruvchi holatlar haqida hech qanday tarif keltirilmagan. Tadqiqotchi olimlar ushbu masalada turli xil fikr yuritganlar, xususan I.T.Muslimov o'zining PhD dissertatsiyasida jazoni yengillashtiruvchi holatlarga jinoyat qonunida nazarda tutilgan ochiq ro'yxat asosida yoki sud tomonidan yengillashtiruvchi deb e'tirof etiladigan, jinoyatning va (yoki) uni sodir etgan aybdor shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasini kamaytiradigan, Jinoyat kodeksi Maxsus qismining normalari doirasida yoxud unda belgilangan minimal chegaradan chetga chiqib jazo tayinlash hamda jazoni individuallashtirish mezonlarini to'ldiradigan omillar tushunilishi lozim³ ekanligini ta'kidlab o'tgan. Ushbu fikrni bevosita qo'llab quvvatlash mumkin, chunki Jinoyat kodeksida yengillashtiruvchi holatlar ro'yxati keltirilgan bo'lib, undan tashqari sud jinoyat sodir etgan shaxsning xususiyati va boshqa holatlarni inobatga olib boshqa holatlarni ham yengillashtiruvchi holat sifatida e'tirof etishi mumkin, lekin ushbu holatlarni sud bevosita hukmda asoslab berishi lozim hisoblanadi. Bu to'g'ridan to'g'ri jazoni individuallashtirish prinsipiga to'g'ri keladi.

Undan tashqari, G.L.Kruger javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar faqat ayb darajasiga, jazo miqdori va sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasiga ta'sir qilmasdan, balki javobgarlik va jazodan ozod qilishning asosiy omillaridan biri ekanligini ta'kidlab o'tadi⁴.

M.X. Rustamboyev ishda yengillashtiruvchi holatlar mavjud bo'lsa, jazo tayinlashda quyidagilarga asos bo'ladi deb yozadilar:

a) sanksiyada belgilangan jazo turlaridan alternativ yengilrog'ini tayinlash;

b) sanksiyada ko'rsatilgan eng oz qismiga yaqinroq muddatni yoki qismini tayinlash;

³ I.Muslimov. Sudlar tomonidan jazoni yengillashtiruvchi holatlarni hisobga olgan holda jazo tayinlash muammolari. 12.00.08 – Jinoyat huquqi.Kriminologiya; Jinoyat-ijroiya huquqi ixtisosligi bo'yicha yuridik fanlar boyicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2023 y. – 25 b.

⁴ Курс советского уголовного права в 6 томах . Т-6. 1979-год . “Наука”. 139



- v) qo'shimcha jazoni qo'llanmasligi;
- g) shartli hukmni qo'llashi mumkin⁵.

Olimlar Usmonaliyev M., Bakunov P. yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda yengillashtiruvchi holatlar yuqorida ta'kidlab o'tilgan holatlardan tashqari, sanksiyada ko'rsatilganidan ham yengilroq jazo tayinlash uchun, hamda tegishli tartibda jazodan ozod qilishga asos bo'lishi mumkinligini ta'kidlab o'tilgan⁶.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan barcha olimlarning fikri ilmiy jihatdan to'g'ri hisoblanadi, yengillashtiruvchi holatlar nafaqat jinoyatlar uchun jazo tayinlashda, balki javobgarlikdan ozod qilish uchun ham asos bo'lishi mumkin degan xulosaga kelsak o'rinli bo'ladi.

Jinoyat kodeksi 55-moddasida jazo tayinlashda inobatga olinadigan yengillashtiruvchi holatlar ro'yxati keltirilgan, biz ularni shartli ravishda 3 ta guruhga bo'lishimiz mumkin hisoblanadi:

a) jinoyat sodir etgan shaxsni tavsiflovchi jazoni yengillashtiruvchi holatlar: 1) voyaga yetmaganning jinoyat sodir etishi; 2) homilador ayolning jinoyat sodir etishi;

b) jinoyat sodir etilgandan keyin jinoyatchining xatti-harakatlarini tavsiflovchi jazoni yengillashtiruvchi holatlar: 1) aybni bo'yniga olish to'g'risida arz qilish, chin ko'ngildan pushaymon bo'lish yoki jinoyatni ochish uchun faol yordam berish; 2) yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf qilish.

c) jinoyatning xususiyatini tavsiflovchi jazoni yengillashtiruvchi holatlar: 1) og'ir shaxsiy, oilaviy sharoitlar oqibatida yoki boshqa mushkul ahvolda jinoyat sodir etish; 2) majburlash yoki moddiy tomondan, xizmat jihatidan yoxud boshqa jihatdan qaramlik sababli jinoyat sodir etish; 3) jabrlanuvchining zo'rlik, og'ir haqorat yoki boshqacha g'ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida jinoyat sodir etish; 4) zaruriy mudofaaning, oxirgi zaruratning asosli chegarasidan chetga chiqib jinoyat sodir etish, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlashda, kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq bo'lgan asosli tavakkalchilikda zarar yetkazish; 5) jabrlanuvchining g'ayriqonuniy yoki axloqqa zid xulq-atvori ta'siri ostida jinoyat sodir etish⁷;

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 55-moddasi dispozitsiyasida nazarda tutilgan jazoni yengillashtiruvchi holatlar bir tomondan real hayotda tez-tez uchrab turadigan va turli jinoyatlarning sodir etilishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan tipik vaziyatlarni o'zida aks ettiradi. Boshqa tomondan esa, qonun

⁵ M.X.Rustambayev "Jinoyat huquqi" darslik 2-tom "Ilm-ziyo nashriyoti" Toshkent-2011 83-bet

⁶ "Jinoyat huquqi . Umumiy qism" darslik , Usmonaliyev M., Bakunov P., " Nasaf " nashriyoti 2010-yil , 465-bet

⁷ [22.09.1994. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi](#)



chiqaruvchi ushbu holatlar orasidan faqat jinoyat sodir etilishi hamda aybdor shaxsning xulq-atvoriga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadigan omillarnigina jazoni yengillashtiruvchi holatlar sifatida belgilagan. Jinoyat huquqi nazariyasida esa jazoni yengillashtiruvchi holatlarning mazmuni va ahamiyati yuzasidan yagona qarash mavjud emas. Ayrim olimlar bunday holatlar ayb darajasining kamayishiga ta'sir ko'rsatadi, degan fikrni ilgari sursa, boshqalar ularning asosiy vazifasi sud tomonidan tayinlanadigan jinoyat jazosini yengillashtirishdan iborat, deb hisoblaydilar.

Har bir davlatning jinoyat qonunchiligida jazoni yengillashtiruvchi holatlarning mavjud bo'lishi tabiiy hol hisoblanadi. Shu sababli mazkur masala yuzasidan inson huquqlarini ustuvor deb biladigan va huquqiy tizimi rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bunday davlatlarning amaliyoti tahlil qilinib, agar ularning tajribasi milliy huquq tizimi uchun maqbul deb topilsa, qonunchilikni takomillashtirish jarayonida ushbu tajribadan foydalanish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Xususan, huquq tizimida o'z o'rniga ega bo'lgan, ilg'or mamlakatlardan biri bo'lgan Germaniya davlati qonunchiligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Germaniya jinoyat huquqida jinoyat sodir etgan shaxsning jabrlanuvchi bilan yarashuvi va yetkazilgan zararni qoplashga harakat qilishi jazo tayinlashda muhim yengillashtiruvchi omil sifatida qaraladi⁸. Ushbu institut "Täter-Opfer-Ausgleich" deb ataladi va uning asosiy maqsadi jinoyatchining oqibatlarini anglab, jabrlanuvchiga yetkazilgan zararlarni kamaytirishga harakat qilishi hisoblanadi. Amaliyotda bu jarayon odatda vositachilik yoki muzokara orqali amalga oshiriladi, aybdor uzr so'rash, moddiy va ma'naviy zararlarni qoplash yoki jabrlanuvchining yo'qotishlarini kamaytirishga yo'naltirilgan boshqa choralarni ko'rishi mumkin. Sud aybdorning bu harakatlarini ichki ishonchiga ko'ra samimiy deb topganda, jazo miqdori kamaytirilishi yoki yengilroq jazo qo'llanilishi mumkin. Shu bilan birga, bu institut nafaqat jinoyatchining jazolanishini, balki jabrlanuvchining manfaatlarini tiklashni ham ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ham yarashuv instituti mavjud bo'lsada, u asosan jinoyat ishini tugatish sharti sifatida qo'llaniladi va bu institutni barcha jinoyatlarga nisbatan qo'llab bo'lmaydi, chunki ularni qatori cheklangan hisoblanadi. Shu sababli Germaniya tajribasini hisobga olib, **jabrlanuvchi bilan yarashuvga erishish**ni qonunchiligimizga alohida yengillashtiruvchi holat sifatida kiritishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu esa jazo tayinlashda adolat,

⁸ [Criminal code of Germany](#)



insonparvarlik va individuallashtirish tamoyillarini yanada samarali ta'minlash imkonini beradi.

Fransiya Jinoyat kodeksida jinoyat sodir etgan shaxsning jamiyat foydasiga qilgan ishlari jazo tayinlashda hisobga olinadi. Masalan, shaxs ilgari ilmiy, ijtimoiy yoki boshqa foydali faoliyat bilan shug'ullangan bo'lsa, sud buni yengillashtiruvchi omil sifatida baholashi mumkin. Bu yondashuv aybdorning shaxsiy xususiyatlarini, ijobiy hatti-harakatlarini ham inobatga olishga imkon beradi va jazo faqat jinoyat uchun berilmasligini ko'rsatadi.

O'zbekiston qonunchiligida esa shunday mezonlar aniq belgilangan emas. Shu bois, **aybdorning ijobiy ijtimoiy faoliyati yoki jamiyat oldidagi xizmatlarini** ham yengillashtiruvchi holat sifatida inobatga olishni qonunchilikka kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu nafaqat adolatni, balki individuallashtirilgan yondashuvni ham kuchaytiradi, shuningdek, jamiyatga foydali faoliyatni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Dunyoda huquq tizimida o'z o'rniga ega bo'lgan mamlakatlar qatoriga kiradigan, "World Justice Project" tashkiloti tomonidan tuziladigan Rule of Law Index reytingiga ko'ra 2025-yilda huquq ustuvorligi bo'yicha dunyoda 3-o'rinda turadigan⁹ Finlandiya jinoyat qonunchiligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Finlandiyada jinoyatlar uchun jazo tayinlash jarayonida, agar jinoyat ishtirokchilikda sodir etiladigan bo'lsa, ishtirokchilarning jinoyat sodir etilishida qay darajada ishtirok etganligi inobatga olinadi. Finlandiya Jinoyat kodeksida belgilab qo'yilgan yengillashtiruvchi holatlar qatorida, jinoyatdagi ishtirok darajasi (degree of participation), jinoyatga qo'shgan real hissasi (actual contribution) ham mavjud hisoblanadi¹⁰. Unga ko'ra agar shaxs bevosita jinoyatni sodir etmagan, tashkil etmagan yoki yordamchi vazifazini bajargan bo'lsa, unga nisbatan ushbu holat yengillashtiruvchi holat deb inobatga olinib boshqa ishtirokchilarga nisbatan yengilroq jazo tayinlanadi. Bu to'g'ridan to'g'ri ishtirokchilik turlaridan bo'lgan yordamchiga to'g'ri keladi. Ushbu jarayonda sud shaxs jinoyatni rejalashtirganmi yoki yo'q, u asosiy tashabbuskor bo'lganmi, jinoyat natijasiga uning ta'siri qanchalik kuchli ekanligiga asosiy e'tiborni qaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 30-moddasida ishtirokchilikda joniya sodir etishning javobgarlik darajasi belgilab qo'yilgan. Lekin ushbu normada hamma holatlar batafsil belgilanmagan. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan Finlandiya tajribasidan kelib chiqib Jinoyat kodeksi 55-moddasiga

⁹ [Finland 2.pdf](#)

¹⁰ <https://www.finlex.fi/>



qo'shimcha band sifatida "jinoyatni sodir etishda shaxsning ishtirok darajasi past bo'lganligi, jinoyatni bevosita sodir etmaganligi, tashkil etmagan yoki jinoyat natijasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmagan holda yordamchi rolni bajargan bo'lsa" degan qoidani kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur qo'shimcha norma sudlarga jinoyat ishtirokchilari o'rtasida aniq differentsiatsiyani qo'llash, ya'ni har bir shaxsning jinoyatdagi real roli, tashabbusi va qilmishining ijtimoiy xavflilik darajasidan kelib chiqib adolatli jazo tayinlash imkonini beradi. Shuningdek, bu o'z navbatida jazoni individuallashtirish prinsipining samarali qo'llanishiga xizmat qilib, yordamchi rolni bajargan shaxslarga nisbatan asossiz ravishda og'ir jazo tayinlanishining oldini oladi.

Natijada, ushbu taklif jinoyat qonunchiligini yanada takomillashtirish, sud amaliyotida yagona va adolatli yondashuvni shakllantirish hamda shaxsning aybi va ishtirok darajasiga mos ravishda javobgarlikni belgilashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jazoni yengillashtiruvchi holatlarni yanada takomillashtirish zarurati mavjud bo'lib, ayniqsa xorijiy tajriba o'rganib ularning samarali ishlayotgan mexanizmlarni qonunchiligimizga qabul qilib moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning natijasida jazo tayinlash jarayoni yanada individuallashtirib, adolat va insonparvarlik tamoillar asosida jazo tayinlashga xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Prezident Murojaatnomasi boshlandi
2. 22.09.1994. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi
3. Criminal code of Germany
4. <https://www.finlex.fi/> . Criminal Code of Finland
5. I.Muslimov. Sudlar tomonidan jazoni yengillashtiruvchi holatlarni hisobga olgan holda jazo tayinlash muammolari. 12.00.08 – Jinoyat huquqi.Kriminologiya; Jinoyat-ijroiya huquqi ixtisosligi bo'yicha yuridik fanlar boyicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. – Toshkent, 2023 y
6. M.X.Rustambayev "Jinoyat huquqi" darslik 2-tom "Ilm-ziyo nashriyoti" Toshkent-2011
7. "Jinoyat huquqi . Umumiy qism" darslik , Usmonaliyev M., Bakunov P., " Nasaf " nashriyoti 2010-yil
8. Курс советского уголовного права в 6 томах . Т-6. 1979-год . "Наука"
9. Finland_2.pdf. Rule of Law Index